

BOSHLANG'ICH SINIF DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYANING UYG'UNLIGI

Odamboyeva Nafosat Ahad qizi
Ellikqal'a Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Qutlimuratova Ma'fura Komiljon qizi
Ellikqala Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Yusupboyeva Gulsara Akmal qizi
Ellikqal'a Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi va unda o'qituvchining mahorati haqida yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, axborot kommunikatsiyalari, oila muhiti.

1-sinf o'quvchilari hali maktab hayoti haqida deyarli tushunchaga ega bo'lmaydilar. Maktab qonun-qoidalarini, tartib-intizomini bilmasdan turib bilim olib bo'lmaydi. Hozirgi axborot kommunikatsiyalari rivojlanayotgan bir davrda o'quvchilarning ongi har xil zaharli axboratlar bilan zaharlanishining oldini olish dolzarb masalalardan bir hisoblanadi. Bolalarni har tomonlama yetuk, g'oyaviy-ma'naviy immuniteti mustahkamlangan, yuksak insoniy fazilatlari shakllangan, milliy ma'naviyatimizni qadrlaydigan shaxs ruhida tarbiyalash boshlang'ich sinf davridayoq shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyati davomida faqat bilim berish bilan cheklanmasligi lozim, tarbiya ham nazardan chetda qolmasligi muhim. Bu ikkalasini bir yo'ldan olib borish o'qituvchidan ulkan mahorat talab qiladi. Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy omil - muallim, uning tafakkur dunyosidir[1].

O'qituvchining o'zi maktab ichki qonun-qoidalarini yaxshi bilsagina o'quvchilarni ham tartib-intizom qoidalariga o'rgata oladi. Tartib bor joyda bilim, bilim bor yerda esa o'sish bo'ladi. Faylasuf Epiktet ham bejizga „Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir“ deb ta'kidlamagan. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning

qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan[2].

O'qituvchi faqat o'quvchilar bilan ishlashib yaxshi natijaga erisha olmasligi mumkin, ota-onalar ham uzviy aloqada bo'lishi lozim. Katta sinflarda ota-onalar majlislari katta ahamiyatga ega bo'lgani kabi, boshlang'ich sinflarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yig'ilishlar natijasida ota-onalar farzandlarining hulqi, o'zlashtirishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar va shundan kelib chiqqan holda farzandlari bilan ishlashadilar. Farzandlari bilan ta'limiy va tarbiyaviy ishlar olib borgan oilalarda yaxshi muhit albatta barqaror bo'ladi. Oila muhiti - insonning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa, bolaning axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi[3]. Tarbiya muhiti barqaror bo'lmagan oilalar ham yo'q emas. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida o'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar deya bejiz nolinmagan.

Hozigi davrda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanmasdan turib, dars jarayonlarini tashkil etib bo'lmaydi, o'quvchilar uchun dars zerikarli, tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. O'qituvchi darslariga nisbatan izlanuvchan, dunyo axborot kommunikatsiyalaridan xabardor bo'lishi, har bir mavzuga hurmat bilan qaragan holda yondashishi, mavzuni faqat adabiyotda berilgan ma'lumotlarni aytish bilan cheklanib qolmasligi, internet saytlari yoki qo'shimcha adabiyotlardagi yangiliklar bilan boyitgan holda o'tishi lozim. Bu o'rinda axloqiy tarbiyani ham davlat ta'lim standartlaridan uzoqlashmagan holda shakllantirish qanchalik taqsinga sazovor. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani ma'lum bir qolipga solib bo'lmazligi turgan gap, ammo o'quvchilarning odob-axloqidan kelib chiqqan holda hayotdan uzilmay shakllantirish mumkin. Ta'limning maqsadi - ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, tarbiya esa xulq-atvor normalari va axloqiy tamoyillarni singdirishga qaratilgan. Ta'lim yuqori darajada tashkil etish va aniq dastur va rejalarni amalga oshirishni talab qiladi. Tarbiyada aniq standartlar mavjud emas va uning maqsadlari hech bir jamiyatda doimiy hisoblanmaydi. Ta'lim vaqt oralig'i bilan cheklangan, tarbiya uzluksiz jarayondir[4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Disterveg, Ziyouz.com
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyayev, hikmatlar.uz sayti.
3. I.Valiev "Xoja Buxoriy" o'rta maxsus islom bilim yurti o'qituvchisi.
4. Efimova Natalya Evgenievna, GBOU 692-o'rta maktab tarix va jamiyat fanlari o'qituvchisi.